

Falloyiy kanali nervlari

Falloyiy kanalida XIII nervdan ajralib chiqqan nervlar:

1. *N.petrosus superficialis major*. Ushbu nerv yuqori so'lak ajratuvchi yadrodan boshlanuvchi parasimpatik sekretor tolalardan iborat. Ularning bir qismi, ya'ni *n.lacrimalis* ko'z yoshi bezi (*glandula lacrimalis*), qolgan qismi burun va og'iz bo'shliqlari bezlariga boradi. Katta toshsimon nerv va uning tolalari zararlanganda, ko'zyosh oqishi sustlashib kseroftalmiya rivojlanadi.
2. *N. stapedius*. Ushbu nerv *m.tensoris tympani* antagonisti hisoblanmish uzangisimon muskulga (*m.stapedius*) boradi. Nerv zararlanganda uzangisimon muskul bo'shashib, tovushlarga ortiqcha qimirlaydi va giperakuziya yuzaga keladi.
3. *Chordae tympani*. Ta'm sezish va sekretor qismlardan iborat. Ta'm sezish qismi tilning oldingi 2/3 qismini innervatsiya qiladi. Sekretor qismi jag'osti va tilosti bezlariga boradi. Demak, so'lak ajralishini stimulyatsiya qiluvchi tolalar nafaqat *n.petrosus superficialis major*, balki *chordae tympani* tarkibida ham mavjud.

Manba: © Z. Ibodullayev. Umumiy nevrologiya. Darslik. Toshkent, 2021., 312 b

© Ibodullayev ensiklopediyasi © www.asab.uz